

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 4

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 4

www.tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Zilola Shukurova, Muattar Ahmedova “Qisasi Rabg’uziy” asari nusxalari va ularning matniy-qiyosiy tadqiqi	4
Saydakbarxon Valiyev “Nahju-l-farodis” asarida keltirilgan qirq hadis va ularning qiyosiy-tekstologik tahlili	20
Munavvar Olimova Huvaydoning Navoiy g’azaliga muxammasi xususida	46

ADABIYOTSHUNOSLIK

Abdulhamid Qurbonov “Yusuf va Zulayxo”: farzandlik tuyg’ularining tasviri	60
Rübabə Şirinova “Ədəb əl-bəhs” əsəri	79
Sardor Umarov Futuvvat va badiiy ijod: tahlil va talqin	91

LINGVISTIKA

Anvarbek Turdialyev Denov tojiklari nutqida qipchoq va qarluq shevalariga xos xususiyatlar	109
Farhad Rahimi Feraği Sözlüğünün Yanlısları Üzerine II	123

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOTOLOGY****Zilola Shukurova, Muattar Ahmedova**

Manuscript Copies of "Qisas al-Rabghuzi" and
Their Textual-Comparative Study 4

Saydakbarxon Valiyev

Forty hadiths and their comparative-
textological analysis presented in the work
"Nahju-l-farodis" 20

Munavvar Olimova

On Huvaydo's Mukhammas Based on a Ghazal
by Navo'i 46

LITERATURE**Abdulhamid Qurbonov**

"Yusuf and Zulaikha": description of filial feelings 60

Rubaba Shirinova

"Adab al-bahs" work 79

Sardor Umarov

Futuwwa and Literary Creativity: Analysis and
Interpretation 91

LINGUISTICS**Anvarbek Turdialiev**

Kipchak and Karluk Dialectal Features in
the Speech of the Denov Tajiks 109

Farhad Rahimi

On the Mistakes of Feraği Dictionary 123

MATNSHUNOSLIK
TEXTOLGY

“Qisasi Rabg‘uziy” asari nusxalari va ularning matniy-qiyosiy tadqiqi

Zilola Shukurova¹
Muattar Ahmedova²

Abstrakt

“Qisasi Rabg‘uziy” asari payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan ilk turkiy manba bo‘lgani uchun o‘z davridayoq kitobxonlarini topib ulgur-
gan va dovrug‘i dunyoning turli burchaklariga qadar yetib borgan. Garchi
ijodkor asarni “Qisasi Rabg‘uziy” deb nomlagan bo‘lsa-da, asar xalq orasi-
da “Qisasul anbiyo” (“Payg‘ambarlar qissasi”) nomi bilan shuhrat qozonib,
ko‘plab nusxalarda dunyoning turli hududlariga olib ketilgan. Shuning
uchun asar qo‘lyozmalarini o‘rganish doimo dolzarb masala hisoblanib
kelgan.

Maqolada Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari qa-
dimiy qo‘lyozma nusxalari hisoblangan, XV asrda Britaniya muzeyida
saqlanayotgan nusxasi, XVI asrda Qozonda ko‘chirilgan nusxasi hamda
O‘zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo‘lyozmalar
institutida 1834 inventar raqami bilan saqlanayotgan nodir nusxalarni
qiyoslash orqali asar matnida yuz bergan o‘zgarishlar va ularning sabab-
lari haqida tahliliy mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *agiografiya, qo‘lyozma, payg‘ambar, hamd, na‘t, bag‘ishlov, odobi tasnif.*

Kirish

Payg‘ambarlar tarixiga oid agiografik asarlar o‘zbek adabi-
yotida alohida ahamiyat kasb etadi. Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisa-

¹Shukurova Zilola Yusupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: zilolashukurova@gmail.com

ORCID ID: 0000000287668833

²Ahmedova Muattar – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti.

E-mail: malikovamuattar@gmail.com

ORCID ID: 0009000502193357

Iqtibos uchun: Shukurova, Z. Y., Ahmedova, M. A. 2024. “Qisasi Rabg‘uziy” asari nusxalari va ularning matniy-qiyosiy tadqiqi”. *Oltin bitiglar* 4: 4 – 19.

si Rabg‘uziy” asari turkiy tilda yaratilgan payg‘ambarlar haqidagi qissalardan tashkil topgan ilk diniy-badiiy asar sifatida alohida qimmatga ega. Shuningdek, ushbu asar o‘zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan badiiy nasrning ilk va nodir namunasi sifatida ham e‘tiborlidir. Asar tuzilishi, mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi, obrazlar tizimi, badiiy nafosati, turli adabiy janrlar, poetik unsurlarning qorishib kelishi nuqtayi nazaridan ham o‘ziga xos manbadir. Adib payg‘ambarlar haqidagi qissalarni yoritishda voqea-hodisalarni aynan keltirmay, ularni o‘z ijodiy maqsadi bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlaydi. Inson umri, jamiyat taqdirida insonning o‘rni yoki, aksincha, insonning kamol topishida jamiyatning roli, ularning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi hayotiy voqealar tasviri yordamida ochib beriladi.

Asarning o‘rganilishi va qo‘lyozma nusxalarining qiyosiy tadqiqi

Asar bir necha asrdan buyon qayta-qayta nashr qilinayotgan bo‘lsa-da, uni ilmiy jihatdan tadqiq qilish XIX asrdan boshlangan. Dastlab N.Ostroumov “Talabalarning ijodiy ishlari” nomli Qozon davlat ruhoniylar akademiyasi tomonidan chiqarilgan qo‘llanmada turli dinlar, xususan, islom dini va payg‘ambarlar faoliyatini tadqiq etishda Rabg‘uziy ijodiga bir necha marta murojaat etgan [Остроумов 1874, 39 – 41]. N.I.Ilminskiy “Qisasi Rabg‘uziy”ning Osiyo muzeyida saqlanayotgan 361-inventar raqamli nusxasiga tayangan holda bu asarning to‘la matnini nashr qilgan [Халиуллина 2002, 17]. L.Budagovning ikki jildli lug‘atida “Qisasi Rabg‘uziy”dan misollar berilgan [Будагов 1868, 9]. V. Radlov tomonidan tuzilgan lug‘atda ham Rabg‘uziy asariga havolalar berilgan [Радлов 1893 – 1911, 1052].

Rus kitobxonlarini “Qisasi Rabg‘uziy” bilan tanishtirishni maqsad qilgan P.M.Melioranskiy asardagi “Solih yalavoch¹ qissasi”ni chop ettirgan [Мелиоранский 1897, 279 – 308]. S.Malov 1951-yilda “Qisasi Rabg‘uziy”dan bir parchani chop ettirib, asarning til xususiyatlariga oid ayrim kuzatuvlarini ilova qilgan [Малов 1930, 507-525]. Polyak sharqshunosi A.Zayonchkovskiy K.Gronbekning “Payg‘ambarlar hikoyatlari” asariga taqriz yozarkan, yo‘l-yo‘lakay “Qisasi Rabg‘uziy” haqida ham to‘xtalib o‘tadi [Zajackowski 1949, 341].

“Qisasi Rabg‘uziy”ni K.Gronbekning faksimilesi asosida tadqiq etgan Aysu Ata asarning fonetik xususiyatlarini o‘rganish bilan birga uning turk tilidagi tabdilini mazkur faksimile nusxasi bi-

¹ Yalavoch – payg‘ambar

lan birga chop ettirgan. Shuningdek, olim o'zining tadqiqot ishida Rabg'uziy ijodining o'rganilishi tarixiga ham keng to'xtalgan bo'lib, S.Chag'atay, J.Shinkevich, A.I.Abrajevin, J.Thuru, N.E.Bayshoten, M.V.Dammelarning ilmiy-nazariy qarashlariga munosabat bildirib o'tgan [Aysu Ata 1997, 21-22]. Rabg'uziy asarida XIV asr turkiy tilining grafo-fonetik va morfologik xususiyatlarini o'rgangan A.R.Xaliullina Qozon shahridagi turli kutubxonalarda mazkur yodgorlikning yigirmaga yaqin qo'lyozma, yigirmadan ortiq toshbosma nusxalari saqlanayotganligini, bu asar Qozon va uning atrofidagi shaharlarda ham keng tarqalganligini, jumladan, Tataristonning bir nechta qishloqlarida mahalliy aholi orasida (ayniqsa, ayollar) qish kechalarida Rabg'uziyning "Qisas ul-anbiyo"¹ asari va Qul Alining "Qissayi Yusuf" asarini jamoa bo'lib o'qish an'anasi mavjud bo'lganligini qayd etadi [Халиуллина 2002, 11].

O'zbek olimlaridan E.Fozilov, A.Yunusov, H.Dadaboyevlar asarning XV asrda ko'chirilgan nusxasini nashrga tayyorlash asnosida uni tadqiq qilgan olimlar haqida gapirib, "Asarning kattagina qismi V.V.Radlov, V.Tomsen, P.M.Melioranskiy, S.Y.Malov, V.L.Kotvich, N.Fon Gaben, G.Ramstedt, A.N.Kononov, P.Sime, Bosim Atalay, E.N.Najib singari atoqli rus va xorijiy turkiyshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgani va A.Krimskiy, S.Brokkelman, M.F.Ko'prulizoda, A.Samoylovich, H.Zarifov, X.Rasul, A.Hayitmetov kabi sharqshunos, tilshunos va adabiyotshunos olimlar ham bu yodgorlik haqida muhim fikrlarni bildirishgan" [Рабғузий 1990, 5 – 8]. Jumladan, professor A.Hayitmetov "O'tmish o'zbek nasri haqida" nomli maqolasida "Nasriy asarlarning birinchi yirik namunasi xorazmlik Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari bo'lib, u asosan diniy mavzularga bag'ishlangan va payg'ambarlarning afsonaviy hayoti haqida hikoya qiladi" degan ma'lumot bilan cheklanadi [Хайитметов 1981, 21]. U.Mirzakarimova "Qisasi Rabg'uziy"ning morfologik xususiyatlarini nomzodlik dissertatsiyasi sifatida o'rgangan [Мирзакаримова 1969, 39]. T.G'afurjonova mazkur asarni o'rganish asnosida yodgorlikning o'zbek nasri rivojida tutgan o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan [Султонов, Хайитметов 1982, 22-31].

B.Sarimsoqov "Qisasi Rabg'uziy"dagi an'anaviy boshlanmalar, saj' san'ati, til va uslub masalasida qimmatli fikrlar aytadiki, ular asar haqida aniq xulosa chiqarishda yordam beradi [Саримсоқов 1978, 94-96].

Shuningdek, adib hayoti va ijodini tadqiq qilishga doir ko'plab ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar, jumladan, X.Rasulev,

¹ "Qisas ul-anbiyo" – "Qisasi Rabg'uziy" nazarda tutilmoqda.

M.Abduvohidova, N.Hasan va M.Kurbaniyazovlarning ilmiy maqolalari [Расулев 1986, 3–30; Абдувоҳидова 1988, 36–38; Ҳасан 1996, 26–30; Курбаниязов 2016, 69; Курбаниязов 2017, 125–129], I.Ostonaqulovning “Qisas ar-Rabg‘uziy” – adabiy asar” [Остонақулов 1993, 129], H.Safarovaning “Rabg‘uziyning Qissayi Yusuf siddiq alayhissalom” asari manbalari va g‘oyaviy-badiiy tahlili [Сафарова 2001, 33] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari yuzaga keldi. B.Abdushukurov esa “Qisasi Rabg‘uziy” leksikasini maxsus tadqiq etgan [Абдушукуров 2015, 3–12]. Shuningdek, bir va ko‘p jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” [Маллаев 1977, 179–186; Раҳмонов 2017, 231–253] majmualarida, “O‘zbek nasri tarixidan” [Султонов, Ҳайитметов 1982, 17–27] kabi ilmiy adabiyotlarda “Qisasi Rabg‘uziy” asari haqida umumlashtiruvchi xulosalar, mulohazalar va tahliliy maqolalar berilgan. Bugungi kunda ham asarning nusxalari qayta-qayta nashrdan chiqmoqda. Ularning orasidan “Turkiy adabiyot durdonalari” nomli 100 jildli to‘plamning 5-jildida professor H.Dadaboyev tomonidan XV asrga tegishli nusxaning nashr qilinishi bu sohada qo‘yilgan yangi bir qadam deyish mumkin.

Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy hayoti va ijodiy faoliyati bo‘yicha shuncha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da u haqida ijodkorning o‘z asarida berilgan qisqacha ma‘lumotdan boshqasiga ega emasmiz. Shunga ko‘ra, asar Rabot o‘g‘uzining qozisi Burhon o‘g‘li Nosiruddin o‘sha davrda hukmronlik qilgan mo‘g‘ul beklaridan Nosiriddin To‘qbug‘aning iltimosiga ko‘ra hijriy 710 yilning Hut (milodiy 1310–1311-yil 21-fevral – 21-mart) oyida yozilgan [Рабғузий 1990, 7]. Nosiriddin To‘qbug‘a islom dinini qabul qilgandan keyin Rabg‘uziyga payg‘ambarlar tarixiga oid asar yozib berishini iltimos qiladi. Rabg‘uziyga bu mas‘uliyatli vazifaning yuklanishi bejiz emas edi. Negaki qozilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar islom tarixi, fiqh, aqoid kabi masalalarni yaxshi bilishgan. Shu sababli To‘qbug‘a Rabg‘uziyning salohiyati va ilmiga ishonib shunday mas‘uliyatli vazifani topshirgan. Keyingi bajarilayotgan tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, Nosiriddin To‘qbug‘a beklik qilgan qal’a – Raboto‘g‘uz hozirgi davr yodgorliklari ro‘yxatida To‘qqal’a nomi bilan qayd etilib, u hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumanida joylashgan [Зоҳидов 2002, 2; Абдушукуров 2015, 9].

Asar tarkibidagi qissalar o‘rtasidagi umumiylik payg‘ambarlarga xos sifatlar, ularning Alloh tomonidan yuborilishi, jamiyatda avj olgan zararli illatlardan insonlarni qaytarishi hamda dinning ahamiyatini tushuntirishi “Qur’on” oyatlari, hadislardan olingan ibratli hikoyalar hamda xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida o‘zi-

ga xos uslubda ifodalanadi. Qissa muqaddimasida payg'ambarlar faoliyati umumiy obzor tariqasida she'riy shaklda berilib, so'ng payg'ambarlarning hayot yo'lini tasvirlashda ularning sifatleri va mo'jizalarini yoritishda saj' usulidan foydalanadi.

Rabg'uziy Qur'on, Hadis, islom tarixi, fiqh, aqid kabi islomiy ilmlarni yaxshi bilsa-da, biroq o'zigacha yashab o'tgan, islom olamida yetuk olimlardan Abu Is'hoq Naysoburiyning forscha "Qisas ul-anbiyo"¹ kitobidan, Vahb ibn Munabbihning arab tilidagi "Ka'b ul-axbor"² asaridan foydalangan, shu bilan birga, Shayx Shibliy³, Umar ibn Xattob⁴, Imom Shayx Jo'yboriy⁵, Shayx Basriy kabi qator ulug' mutasavviflar hayoti va ta'limotiga oid lavhalar bilan tanishtiradi. Shuningdek, turli roviylarning xabarlaridan ham foydalangan. Bunga qissani o'qish jarayonida bevosita guvoh bo'lish mumkin.

Asarning avtograf nusxasi haligacha noma'lum bo'lib, bizga ma'lum bo'lgan eng qadimiy nusxa XV asrga tegishli. Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ushbu asarning hozircha 4 ta qadimiy nusxasi mavjud bo'lib, ularning eng mo'tabari XV asrda ko'chirilgan va hozirgi kunda Britaniya muzeyida saqlanayotgan nusxadir. Keyingi mo'tabar nusxa Rossiya fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Leningrad bo'limida saqlanayotgan S-245 raqamli qo'lyozma bo'lib, uni mutaxassislar ko'chirilgan vaqtini XV – XVI asr deb taxmin qilishgan⁶. Undan keyingi qadimiy nusxa Qozonda saqlanayotgan nusxa hisoblanadi. U ham taxminan XVI asrlarda ko'chirilgan. XVI asrda ko'chirilib, nodir qo'lyozma sifatida alohida saqlanayot-

¹ Abu Is'hoq an-Naysoburiyning to'liq ismi Ibrohim ibn Muhammad ibn Ibrohim al-Xazomiy an-Naysoburiy. Faqih va muhaddis bo'lgan. Tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Milodiy 933-yil (hijriy 321-yil)da vafot etgan.

² Vahb ibn Munabbah ibn Komil ibn Siyj ibn Zi Kibor. Milodiy 655 (hijriy 34) yilda tug'ilgan. Ulug' tobeinlardan bo'lib, avvalgi o'tganlar haqidagi qissalar va xabarlarini rivoyat qilishi bilan mashhur bo'lgan. Milodiy 738 (hijriy 114-yil)da vafot etgan.

³ Shibliy – Abu Bakr Muhammad ibn Xalaf arab tilida ijod qilgan tasavvuf shoiri. O'rta Osiyoning Buxoro hududida tavallud topgan. 945-yilda Bag'dodda vafot etgan.

⁴ Umar ibn Xattob ibn Nufayl ibn Abduluzzo ibn Royah. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam vafot etgach, Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhudan keyingi ikkinchi xalifa. Fil yilining o'n uchinchi yili Makkada tavallud topgan. Sahobalar orasida shijoat, odillik, haqqo'ylik, ixlos, itoatgo'ylik, omonatdorlik kabi sifatlar bilan tanilgan.

⁵ Jo'ybor shayxlari naqshbandiylik tariqatining Buxorodagi vakillari. Jo'ybor shayxlari islom dinini targ'ib qilish uchun Makkadan Nishopurga, undan Buxoroga kelgan. Ular Ali ibn Abu Tolibning avlodlaridir.

⁶ Ushbu nusxaning fotoplyonkasi qo'limizda mavjud bo'lib, u o'ta eski fotoplyonkada bo'lgani uchun hozircha uni o'qishning imkoni bo'lmadi.

gan nusxa yurtimizda Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari Asosiy fondida saqlanayotgan 1834 inventar raqamli qo‘lyozma hisoblanadi. Bu asar yillar davomida ko‘p talafot ko‘rgani sababli dastlabki sahifalari yo‘qolgan. Bu yo‘qolgan sahifalar keyingi yillarda (XX asrda) boshqa bir kotib tomonidan qayta ko‘chirilib tiklangan.

Ushbu nusxalardan tashqari asarning boshqa nusxalari aksariyat XIX–XX asrda ko‘chirilgan nusxalaridir. Xususan, Turkiya davlat kutubxonasida asarning yuzdan ortiq, Qozog‘istonning Ostona shahridagi davlat kutubxonasida qirqdan ortiq qo‘lyozma va toshbosma nusxalari mavjudligi aniqlangan [Айсу Ата 1997, 21–22; Халиуллина 2002, 11]. Shunday nusxalar respublikamizdagi kutubxonalarda ham ko‘plab uchraydi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari fondida o‘zbek tilidagi №7397, №6227, №6685, №6346, №12701, №6122, №10252, №11202 nusxalar hamda tatarchada yozilgan №11537 raqamli asar nusxalari saqlanadi. Bundan tashqari, mazkur kutubxonada muallifi va ko‘chirilgan yili ko‘rsatilmagan “Qisasul anbiyo” nomi ostida o‘zbek tilidagi №7022, №1624, №5687 hamda fors-tojik tilida yozilgan №11654, №12421, №12472, №11777, №7281, №9638, №10198, №4230 inventar raqamlari bilan ro‘yxatga olingan qo‘lyozma va toshbosmalar ham borki, agar sinchkovlik bilan o‘rganilsa, ular ham asar nusxalaridan biri bo‘lishi mumkin. Har holda muallifi ko‘rsatilmagan asarni sinchkovlik bilan o‘rganmasdan aniq bir fikr aytish qiyin. Bundan tashqari, respublikada yashovchi ayrim mahalliy aholining shaxsiy kutubxonasida ham asar nusxalarini topish mumkin va ular ham katta ehtimol bilan XIX – XX asrda ko‘chirilgan qo‘lyozma yoki toshbosmalardir.

Asar nusxalari ko‘pligiga qaramasdan, ularning ko‘chirilgan davriga e‘tibor bersak, XIX – XX asrda ko‘chirilganlarning deyarli barchasi qadimiy nusxadan anchagina farq qiladigan asar nusxalaridir. Bu o‘zgarishlar shu darajaga yetganki, ularning muqaddima qismidagi Rabg‘uziy nomiga nisbat berilgan qaydni hisobga olmaganda, bu asar aynan Nosiruddin Rabg‘uziyning qalamiga tegishli ekanligini isbotlash qiyin. Shu sababli ba’zi olimlar, xususan, I.Oston-aqulovning “1859 –1916-yillarda Qozon va Toshkent shaharlarida bosilgan payg‘ambarlar qissalarini Rabg‘uziy nomiga nisbat berish to‘g‘ri emas. Ularni noma‘lum muallif tomonidan ishlangan “Qisas ul-anbiyoi turkiy” deb atagan ma‘qul” degan xulosaga kelishiga cha olib keldi [Остонақулов 1993, 18]. Bu gipotezani qabul qilib bo‘lmaydi. Negaki ushbu asar qanchalik o‘zgarishga uchramasin,

uning muallifi Nosiruddin Rabg'uziy bo'lib qolaveradi.

Asarning qadimiy nusxalari asliyatga yaqin bo'lganligi sababli ushbu maqolada qadimiy nusxalar deya e'tirof etilayotgan XV va XVI asrdagi nusxalarni qiyoslash orqali o'zgarishlar va ularning sabablarini aniqlashga harakat qilamiz.

Britaniya muzeyida saqlanayotgan asarning XV asrdagi nusxasi eng qadimiy nusxa bo'lib, qo'lyozma 500 bet, ya'ni 250 varaqni tashkil etadi.

Kitob sahifalanmagan, biroq poygirlari mavjud. 1v. 1r. ko'rishida raqamlangan sonlar esa Gronbek faksimilesida raqamlangan bo'lishi kerak. Kitobning dastlabki sahifasi anchagina talofot ko'rgani sababli undagi hamma yozuvni o'qishning iloji yo'q. Unda arab yozuvidagi harflar bilan "هذا كتاب الربغوزى الأنبياء" deb yozilgani g'ira-shira tarzda ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda aslida قصص lafzi ham bo'lishi kerak. Ammo bu muqovaning qoramtir suratida ko'zga ko'rinmaydi. Asar nasta'liq xatida bitilgan. "Odob tasnif"ga ko'ra, "Bismillahir rohmanir rohiym" so'zidan keyin tahmid – Allohga hamdu sano bilan boshlanadi. Muallif Allohga hamd aytishda uning buyuk ne'matlarini zikr qilar ekan, ularning har birini Qur'on oyatlari bilan dalillab keltiradi. Shundan so'ng hamd va na'tdan keyin mo'g'ul beklaridan Nosiruddin To'qbug'a madhi va o'zi haqidagi qisqacha ma'lumot beriladi. Shundan so'ng asarning asosiy qismi boshlanadi.

Asar dunyoning yaralishi voqeasidan boshlanib, so'ngi payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallam hayoti va u bilan bog'liq voqealar bilan yakunlanadi. Har bir sahifa (muqaddimani hisobga olmaganda) 21 qatordan iborat. Kerakli o'rinlarda gloss berilgan. Hamd qismining o'zida madh lafzlariga munosib bo'lgan uch oyatni ma'naviy izchillikda keltiradi. Na't qismida Muhammad sollallohu alayhi vasallamning siyrati va fazlini silsilaviy ochib beruvchi yigirma besh oyatdan iqtibos keltirgan. Shundan so'ng u zotga bag'ishlab o'n to'rt misradan iborat she'r bitilgan bo'lib, so'ng siyratlariga oid ma'lumotlarni ham taqdim etgan. Bag'ishlov qismida Nosiruddin To'qbug'aga bag'ishlangan o'ttiz uch baytli qasida berilib, xoqonning shaxsiy fazilatlarini madh etiladi.

XVI asrda ko'chirilgan, deb taxmin qilingan ikkinchi nodir manba – asarning Qozon nusxasi ham olimlar tomonidan XV asrga yaqin nusxa deb taxmin qilinadi.

Ushbu asar Qozon kutubxonasida saqlanadi. Ushbu asar jami 448 varaq, ya'ni 896 sahifadan iborat. Har bir qator 21 satrdan iborat. Poygirlari mavjud, gloss berilgan, biroq qadimiy nusxa bilan solishtirilganda, ularning o'рни bir emas. XV asrda berilgan gloss XVI

asrdagi nusxada interpolatsiya holatiga kelgan.

Kitob yaxshi saqlanganligi sababli unga deyarli shikast yetmagan. Hattoki dastlabki sahifalari ham saqlab qolingan. Har ikki nusxasini bir-biri bilan qiyoslaganda eng avvalo ularning sahifalaridagi tafovut tadqiqotchini ajablantiradi. Negaki XV asrdagi nusxa 500 sahifani tashkil qilsa, XVI asrdagi nusxa 896 sahifani tashkil qilmoqda. Bu esa XVI asr nusxasi tuzilishida o‘zgarishlar bo‘lganmi-kan, degan taxminni keltirib chiqaradi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining yurtimizda saqlanayotgan eng qadimgi nusxasi sifatida e’tirof etilayotgan qo‘lyozmalar institutidagi №1834 raqamli nusxaning dastlabki sahifalari yo‘qolgani bois keyingi nashrlar orqali 1-betdan 5-a betgacha siyoh rangda chiroyli husnixatda qaytadan ko‘chirilgan. Matnda 3 xil xat uchraydi. Asar 896 sahifadan iborat. Nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Asarni ko‘chirgan kotib ma’lum emas.

Asar besh xil yozuvda bitilgan: 1-betdan 5-a betgacha birinchi xil yozuv, 5-b betdan 191-betgacha ikkinchi xil yozuv, 192-a betdan 203-b betgacha uchinchi xil yozuvda bitilgan. 446-b betdan 447-b betgacha varaqlari zarar ko‘rgani bois boshqa chiroyli xusnixatda to‘ldirilgan. 448-betdan 450-betgacha bo‘lgan qismda basmala bilan boshlangan aqidaviy masalalarga oid hukmlar yozilgan bo‘lib, ushbu hukmlar hamd, salavot bilan boshlanib, iymoni mufassal, qirq farz bayoni, qunut duosi va boshqa duolardan iborat ekani, shuningdek, bu hukmlar fors-tojik tilida yozilgani aniqlandi. Bu esa ushbu sahifalar kitob tarkibiga oid emasligini bildiradi.

Ichki unvonlar yashil, qizil rang bilan ajratilgan. Kitobning ayrim joylariga nam tegib, sahifalari bo‘yalgan. Ba’zi jumlar tagiga qalam bilan chizilgan, ba’zi yirtilgan varaqlarning chetlari qayta ta’mirlangan. Ayrim qayta ta’mirlangan sahifalarga boshqa qog‘ozlar yelimlab yopishtirilgani bois ularning ba’zi satrlarini o‘qish imkonsiz.

Har uchala nusxa qadimiy bo‘lgani sababli ularning asliyatga yaqinligi qay darajada saqlanib qolganligini tekshirish uchun qiyosiy tadqiq qilish lozim. Qiyos oson bo‘lishi uchun jadvalda aks ettiriladi. Zero, “O‘qilgan qo‘lyozmalar soni qancha ko‘p bo‘lsa, tuman shunchalik tarqalib, masala oydinlashib boradi. Tadqiqotchining qo‘lidan yuzlab, minglab qo‘lyozmalar o‘tsa, ilgari amalga oshirib bo‘lmaydigandek tuyulgan masala oddiylashadi va oydinlashadi” [Бертельс 1957, 237– 238].

XV asr nusxa	XVI asr Qozon nusxa	XVI asr Toshkent nusxa
“Sonsiz hamd-u sanolar va saqishsiz ko’p shukrlar ul tangrig’akim Jalla jalallohukim, qudrati birla bizni odamiy yaratdi va yilqi qaro yaratmadi. Qavluhu taolo: وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي آدَمَ [Qur’oni karim. Isro surasi 70-oyat]. Odamiy yaratmish so’ng fazli karami birla bizlarni er yaratdi: وَلِلرَّجَالِ عَلَيْهِنَّ دَرَجَةٌ “Va erkaklarga ular-dan (ayollardan) ustun daraja bordir”. [Baqara surasi 228-oyat] taqi bizni asig’ yo’lg’a ko’ndurub hidoyat birla og’irlab yamon yo’ldin qutqardi”.	“Sonsiz hamd-u sanolar saqish ezgular Izi azza va jallag’akim qudrati birla bizlarni Odam yaratdi va pari yaratmadi taqi qaro yaratmadi. وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي آدَمَ وَحَمَلْنَاهُمْ فِي الْبَرِّ وَالْبَحْرِ¹ [Qur’oni karim. Isro surasi 70-oyat]. Odamni yaratmish-din keyin fazli karami birla er yaratdi, xotun yaratmadi. وَلِلرَّجَالِ عَلَيْهِنَّ دَرَجَةٌ “Va erkaklarga ulardan (ayollardan) ustun daraja bordir”. [Baqara surasi 228-oyat]. Taqi bizlarni arig’ yo’lg’a ko’ndurdi, hi-doyat birla og’irlab yamon yo’ldin chiqardi”.	“Sonsiz hamd-u sanolar saqish ezgular Izi azza va jallag’akim qudrati birla bizlarni Odam yaratdi va pari yaratma-di taqi qaro yaratmadi. وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي آدَمَ وَحَمَلْنَاهُمْ فِي الْبَرِّ وَالْبَحْرِ² Batahqiq, biz odam bo-lasini aziz-u mukarram qilib qo’ydik va ular-ni quruqlig-u dengizda (ulov-la) ko’tardik. [Qur’oni karim. Isro surasi 70-oyat]. Odamni yaratmishdin ke-yin fazli karami birla er yaratdi, xotun yaratma-di. وَلِلرَّجَالِ عَلَيْهِنَّ دَرَجَةٌ “Va erkaklarga ulardan (ayollardan) ustun daraja bordir”. [Baqara surasi 228-oyat]. Taqi bizlarni arig’ yo’lg’a ko’ndurdi, hidoyat birla og’irlab yamon yo’ldin chiqardi”.

Ushbu qiyoslardan ma’lum bo’ladiki, Qozon va Toshkent nusxalari XV asrda ko’chirilgan asar nusxasi bilan bir xil emas. XVI asr Qozon va Toshkent nusxalari esa aynan bir xil. Aniqroq qilib aytganda, Toshkent nusxasining yo’qolgan qismi Qozon nusxasi asosida tiklangan. Bundan shu xulosaga kelish mumkinki, Toshkent nusxasi Qozon nusxasi bilan bir xil bo’lsa, XV asr nusxasi bilan Qozon nusxasi o’rtasidagi fonetik, morfologik, leksik va semantik tafovutlar qanday paydo bo’lgan?

Tajribalar shuni ko’rsatadiki, kotib asarni ko’chirish jarayoni-

¹ Batahqiq, biz odam bolasini aziz-u mukarram qilib qo’ydik va ularni quruqlig-u dengizda (ulov-la) ko’tardik.

² Batahqiq, biz odam bolasini aziz-u mukarram qilib qo’ydik va ularni quruqlig-u dengizda (ulov-la) ko’tardik.

da atayin yoki beixtiyor holatda asar matniga o‘zgartirish kiritgan. Bu esa bir necha holat bilan izohlanadi. Ma’lumki, har qanday kotib, matn ko‘chirish jarayonida, asosan, matnning ma’lum qismigacha, aytaylik, so‘z birikmasi yoxud gap shaklida o‘qib olib, uni xotirasida saqlab, keyin oq qog‘ozga ko‘chiradi. Shu jarayonda ong ushbu so‘zlarning ma’lum qismini aynan eslab, ba’zi so‘zlarning ma’nodoshiga almashtirib beradi yoxud ba’zi so‘zlarni esdan chiqaradi. Bu holat kotibning qancha hajmdagi matnni bir o‘qishda ko‘chirib yozishiga bog‘liq. Matn qancha katta bo‘lsa, ko‘chirishdagi o‘zgarish ham shunga yarasha bo‘ladi. Ushbu jarayon kotibning ixtiyori-dan tashqaridagi holat bo‘lib, uni kotib atayin bajarmaydi, bil’aks, o‘zi bilmagan holda matnga o‘zgartirish kiritib qo‘yishi mumkin. Jarayon natijasini muqaddimadagi qisqa misralarda ham ko‘rish mumkin. “Sonsiz hamd-u sanolar **va saqishsiz ko‘p shukrlar ul tan-grig‘akim Jalla jalallohukim**, qudrati birla bizni **odamiy** yaratdi va **yilqi qaro** yaratmadi. Qavlulu taolo Odamiy yaratmish so‘ng fazli karami birla bizlarni er yaratdi..... taqi bizni **asig‘** yo‘lg‘a ko‘ndurub hidoyat birla og‘irlab yamon yo‘ldin **qutqardi**” satrlarida-gi so‘zlarning XVI asr Qozon va Toshkent nusxalarida **va** bog‘lovchi-sining tushib qolishi, **ko‘p shukrlar** birikmasining **ezgular** so‘zi bilan almashinishi, **asig‘** (foydali) so‘zining o‘rniga **arig‘** (toza) so‘zi bilan almashtirilishi kabi holatlarni kiritish mumkin.

Ba‘zan esa kotiblarning matnga mustaqil yondashish hola-ti ham kuzatiladi. Bu holat XVI asrdan keyin ko‘chirilgan kitoblar-da ko‘p uchraydi. Matnga mustaqil yondashish XIX asrning oxir-lariga qadar kuzatiladi. Kotiblar asarni ko‘chirish jarayonida uning “mukammal”ligini ta‘minlash, sujetini yanada boyitish maqsadida o‘zini “ikkinchi muallif” deb hisoblab, asar matniga ongli ravishda o‘zgartirishlar kiritadi. Bu esa asarni muallif matnidan uzoqlashti-radi. Biz tahlil qilayotgan ushbu matnda ham shu holatni kuzatish mumkin. Yuqorida XV asrda ko‘chirilgan “qudrati birla bizni **odamiy** yaratdi va **yilqi qaro** yaratmadi” gapida “**yilqi qaro** yaratmadi” birik-masi kengaytirilib, “**pari yaratmadi taqi qaro** yaratmadi” tarzida berilgan. XV asr nusxasi matni mazmuniga ko‘ra Alloh taolo insonni hayvon suratida yaratmagani uchun shukr qilingan. XVI asr nusxasi-da Alloh insonni pari emas, hayvon emas, balki Inson qilib yaratgani uchun shukrlar bo‘lsin, degan. Xo‘sh, nega XV asr nusxasida umuman qatnashmagan **pari** termini XVI asrda matn tarkibiga qo‘shilib qoldi?

Dastavval aytish kerakki, hamd qismida berilgan oyatlar Qur‘onning Isro surasi 70-oyatidan olingan. Unga ko‘ra:

وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي آدَمَ وَحَمَلْنَاهُمْ فِي الْبَرِّ وَالْبَحْرِ وَرَزَقْنَاهُمْ مِنَ الطَّيِّبَاتِ وَفَضَّلْنَاهُمْ عَلَى كَثِيرٍ مِمَّنْ خَلَقْنَا تَفْضِيلًا

Batahqiq, biz odam bolasini aziz-u mukarram qilib qo'ydik va ularni quruqlig-u dengizda (ulov-la) ko'tardik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va uni O'zimiz yaratgan ko'p jonzotlardan afzal qilib qo'ydik (Isro surasi 70-oyat). Oyat mazmunidan anglashilishicha, Alloh insonlarni *ko'p jonzotlardan afzal qilgan*. Qadimiy nusxada ushbu jonzotlarga aniqlik kiritib, hayvonlar, deb berilgan bo'lsa, XVI asr nusxasida ushbu oyatning mazmunini yanada oydinlashtirishga harakat qilingan. Hayvonlar terminiga parilar termini ham qo'shilib, bu orqali g'ayb maxluqotlari hisoblangan parilar insonlardan past maqomda qo'yilgan.

Ibn Abbos roziyallohu anhu insoniyatning azizligi ularning hayvonlardan farqli ravishda nutq qila olishi, tushunishi, ilm egallay olishi, qo'llari bilan taomlanishi, qomatining tik ekani, ko'rinishining go'zal ekanida degan [Sulaymon ibn Umar al Ujayliy 2013, 332-bet]. Ya'ni ushbu oyatning sharhida, aksar tafsir kitoblarida, insoniyatni hayvondan aziz qilib turgan sifatlar zikr qilingan. Bundan kelib chiqadiki, tafsir ilmini yaxshi bilgan muallif shunga ishora qilgan holda **odamiy** yaratdi va **yilqi qaro** yaratmadi, degan.

"Al futuhatu ilohiyya" kitobida keltirilishicha, Alloh taoloning insoniyatni **aziz-u mukarram** qilishi unga aql, nutq, yozish, chiroyli ko'rinish kabi xislatlar berganidir. Insonning o'sha aql-tafakkuri bilan to'g'ri yo'lni tanlay olishi, go'zal axloqni kasb qila olishi esa uni boshqa barcha yaratiqlardan **afzal** qiladi.

Matndagi asliyatdan farqli holda pari terminining qo'shilishi, nazarimizda, kotib oyat mazmunini oydinlashtirish uchun atayin qo'shgan ibora hisoblanadi. Shu bois bu holatni kotibning matnga mustaqil yondashuvi natijasi deyish mumkin.

Xulosa

Xulosa shuki, "Qisasi Rabg'uziy" asari shu kunga qadar sharq va g'arb olimlari tomonidan turli aspektda o'rganilgan bo'lsa-da, hali tadqiq qilinishi lozim bo'lgan jihatlari ham ko'p. Asar nusxalarini qiyosiy o'rganish, payg'ambarlar tarixiga oid ma'lumotlarni sahih diniy manbalar bilan dalillash masalasiga esa hali qo'l tekkizilmagan. Bu esa yurtimiz matnshunoslari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifa demakdir. Zero, xalqimiz tarixi, o'tmishi va kelajagini ma'naviy rishta sifatida bog'lab turadigan "Qisasi Rabg'uziy"-dek ham badiiylik, ham til nuqtayi nazaridan ulkan e'tiborga molik yozma yodgorlikni har tomonlama o'rganish, ochilmagan qirralarini

kashf etish va uni kelajak avlodga yetkaza olish sharaflı mas’uliyat demakdir.

Adabiyotlar

- Абдувоҳидова, М. 1988. “Рабғузий ва ўзбек классик прозаси”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 36 – 38.
- Абдушукуров, Б. 2008. *“Қисаси Рабғузий” лексикаси*. Тошкент: Академия.
- Абдушукуров, Б. 2015. *Эски туркий адабий тил лексикаси*. Тошкент: Тафаккур бўстони.
- Aysu Ata. 1997. *Nasəruddin bin Burhaneddin Rabguzi. Kəsasu’l-Enbiya*. Ankara.
- Бертельс, Е.Э. 1957. *Вопросы методики критических изданий классических памятников литературы народов Ближнего и Среднего Востока*. Материалы Всесоюзной конференции востоковедов в Ташкенте.
- Будагов, Л. 1868. *Сравнительный словарь турецко-татарских наречий*. Москва: СП. б, Изд-во востлит, (1960) I-II, Репринт. изд.
- Ҳайитметов, А. 1981. *Ўтмиш ўзбек насри ҳақида*. Ўзбек насри тарихидан. Тошкент: Фан.
- Ҳасан, Н. 1996. “Қисаси Рабғузий” да Юсуф пайғамбар образи талқини. *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 26 – 28.
- Курбаниязов, М. 2016. “Қисаси Рабғузий” да фольклоризмлар. *Ўзбек тили ва адабиёти* 3: 69 – 70.
- Курбаниязов, М. 2017. Олтин Ўрда ўзбек адабиёти. *Шарқ юлдузи* 12: 125 – 129.
- Маллаев, Н. 1978. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Малов, С.Е. 1930. *Мусульманские сказания о пророках по Рабгузи, Записки коллегии востоеоведов. Т. V (в честь акад. Крачковского)*. Ленинград.
- Мелиоранский, П.М. 1897. “Сказание о пророке Салихе”. *Сборник статей учеников проф. бар. В.Р.Розена*. М.: СПб., 279 – 308.
- Мирзакаримова, У. 1969. *Морфологические особенности «Кисаси Рабгузи»*: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент.
- Остроумов, Н. 1874. *Труды студентов*. Казан: Университетская типография. // <https://dlib.rsl.ru/viewer/01003587296#?page=39>
- Остонақулов, И. 1993. *“Қисас ар-Рабғузий” – адабий асар*: Филол. фан. номз. дисс. ... Тошкент.
- Рабғузий. 1990. *Қисаси Рабғузий*. 1-китоб. Тошкент: Ёзувчи.
- Радлов, В.В. 1893-1911. *Опыт словаря тюркских наречий*. Москва: СП. б, Изд-во востлит, (1963-1964) I-IV, Репринт. изд.
- Раҳмонов, Н. 2017. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Тошкент: Sano-standart.
- Расулев, Х. 1986. “Халқ фантазияси изларининг кўриниши”. *Адабий*

мерос 2: 3 – 30.

Сафарова, Ҳ.А. 2001. *Рабғузийнинг “Қиссаи Юсуф сиддиқ алайҳиссалом” асари манбалари ва ғоявий бадиий таҳлили*: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. Тошкент.

Сафарова, Ҳ.А. 2003. *Ҳазрати Юсуф – гўзаллик тимсоли*. Тошкент: Тошкент ислом университети.

Саримсоқов, Б. 1978. *Ўзбек адабиётида сажъ*. Тошкент: Фан.

Султонов, И., Ҳайитметов, А. 1982. *Ўзбек насри тарихидан*. Тошкент: Фан.

Sulaymon ibn Umar al Ujayliy. 2013. *Al Futuhatul ilohiyya*. 8 juzlik. Bayrut: Darul kutubul ilmiyya.

Халиуллина, А.Р. 2002. *Графо-фонетические и морфологические особенности тюркоязычного памятника XIV в «Кисас ал анбия» Насриддина Рабғузи*. Казан: Казанский государственный университет.

Zajaczkowski, A.Rocz. Orjent. XIV, 1949. (Иқтибос Малов С.Е.нинг “Памятники древнетюркской письменности” (1951, 341-бет) китобидан олинди).

Зоҳидов, П. 2002. “Кун туғардин кун ботарға сўзи етган зот”. *Ўзбек адабиёти ва санъати*: 2-февраль.

Ўзбек адабиёти тарихи. 1977. 1-том. Тошкент: Фан.

Shayx Usmonxon Temurxon o'g'li Samarqandiy. 2021. *Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimai*. Ankara.

Shukurov, Z. 2021. “Qisasi Rabg'uziy”ning nodir qo'lyozmasi va toshbosma nusxalari qiyosi va tahlili”. *“Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari*: 42 – 45.

Manuscript Copies of “Qisas al-Rabghuzi” and Their Textual–Comparative Study

Zilola Shukurova¹

Muattar Ahmedova²

Abstract

“Qisasi Rabguzi” was the first Turkish source dedicated to the history of prophets, so it found readers in its time and even reached different parts of the world. Although the creator himself named the work “Qisasi Rabguzi”, the work became popular among the people under the name “Qisasul Anbiyo” (“The Tale of the Prophets”) and passed from hand to hand, copied in copies, taken to different parts of the world and delivered to the people.

Therefore, the need for a comparative study of the work was always considered urgent. In this article, a copy of Nasiruddin Rabguzi’s “Qisasi Rabguzi” which is considered to be an ancient manuscript copy kept in the British Museum in the 15th century, a copy copied in Kazan in the 16th century, and a rare copy kept in the Institute of Manuscripts named after Abu Rayhan Beruni of the Republic of Uzbekistan with the inventory number 1834, is analyzed in the text of the work. Analytical comments about the changes and their reasons are given.

Key words: *hagiography, manuscript, prophet, praise, praise, dedication, moral classification.*

References

- Abduvohidova, M. 1988. “Rabg‘uziy va o‘zbek klassik prozasi”. *O‘zbek tili va adabiyoti* 4: 36 – 38.
- Abdushukurov, B. 2008. “*Qisasi Rabg‘uziy*” *leksikasi*. Toshkent: Akademiya.
- Abdushukurov, B. 2015. *Eski turkiy adabiy til leksikasi*. Toshkent: Tafakkur bo‘stoni.
- Aysu Ata. 1997. *Nasiruddin bin Burhaneddin Rabguzi. Kesasul-Enbiya*.

¹ Zilola Y. Shukurova – Doctor of philosophy in philological sciences (PhD), associate professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: zilolashukurova@gmail.com

ORCID ID: 0000000287668833

² Muattar A. Ahmedova – PhD student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: malikovamuattar@gmail.com

ORCID ID: 0009000502193357

For citation: Shukurova, Z. Y., Ahmedova, M. A. 2024. “Manuscript Copies of “Qisas al-Rabghuzi” and Their Textual–Comparative Study”. *Golden scripts* 4: 4 – 19.

Ankara.

- Bertels, Ye.E. 1957. *Voprosi metodiki kriticheskix izdaniy klassicheskix pamyatnikov literaturi narodov Blijnego i Srednego Vostoka. Materiali Vsesoyuznoy konferensii vostokovedov v Tashkente*.
- Budagov, L. 1868. *Sravnitelniy slovar' turesko-tatarskix narechiy*. Moskva: SP. b, Izd-vo vost.lit., (1960) I-II, Reprint. izd.
- Hayitmetov, A. 1981. *O'tmish o'zbek nasri haqida*. O'zbek nasri tarixidan. Toshkent: Fan.
- Hasan, N. 1996. "Qisasi Rabg'uziy"da Yusuf payg'ambar obrazi talqini. *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 26 – 28.
- Kurbaniyazov, M. 2016. "Qisasi Rabg'uziy"da folklorizmlar. *O'zbek tili va adabiyoti* 3: 69 – 70.
- Kurbaniyazov, M. 2017. Oltin O'rda o'zbek adabiyoti. *Sharq yulduzi* 12: 125 – 129.
- Mallaev, N. 1978. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Malov, S.Ye. 1930. *Musulmanskie skazaniya o prorokax po Rabguzi, Zapiski kollegii vostoeovedov. T. V (v chest akad. Krachkovskogo)*. Leningrad.
- Melioranskiy, P.M. 1897. "Skazanie o proroke Salihe". *Sbornik statey uchenikov prof. bar. V.R.Rozena*. M.: SPb., 279 – 308.
- Mirzakarimova, U. 1969. *Morfologicheskie osobennosti «Kisasi Rabguzi»*: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. Tashkent.
- Ostroumov, N. 1874. *Trudi studentov*. Kazan: Universitetskaya tipografiya. // <https://dlib.rsl.ru/viewer/01003587296#?page=39>
- Ostonaqulov, I. 1993. "Qisas ar-Rabg'uziy" – *adabiy asar*: Filol. fan. nomz. diss. ... Toshkent.
- Rabg'uziy. 1990. *Qisasi Rabg'uziy*. 1-kitob. Toshkent: Yozuvchi.
- Radlov V.V. 1893-1911. *Opit slovary tyurkskix narechiy*. Moskva: SP. b, Izd-vo vost.lit., (1963-1964) I-IV, Reprint. izd.
- Rahmonov, N. 2017. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: Sano-standart.
- Rasulev, X. 1986. "Xalq fantaziyasi izlarining ko'rinishi". *Adabiy meros* 2: 3 – 30.
- Safarova, H.A. 2001. *Rabg'uziyning "Qissai Yusuf siddiq alayhissalom" asari manbalari va g'oyaviy badiiy tahlili*: Filol. fan. nomz. diss. ... avtoref. Toshkent.
- Safarova, H.A. 2003. *Hazrati Yusuf – go'zallik timsoli*. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
- Sarimsoqov, B. 1978. *O'zbek adabiyotida saj'*. Toshkent: Fan.
- Sultonov, I., Hayitmetov, A. 1982. *O'zbek nasri tarixidan*. Toshkent: Fan.
- Sulaymon ibn Umar al Ujayliy. 2013. *Al Futuhatul ilohiyya*. 8 juzlik. Bayrut: Darul kutubul ilmiyya.
- Xaliullina, A.R. 2002. *Grafo-foneticheskie i morfologicheskie osobennosti tyurkoyazichnogo pamyatnika XIV v «Kisas al anbiya» Nasriddina Rabguzi*. Kazan: Kazanskiy gosudarstvenniy universitet.

- Zajackowski, A.Rocz. Orjent. XIV, 1949. (Iqtibos Malov S.Ye. ning “*Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti*” (1951, 341-bet) kito-bidan olindi).
- Zohidov, P. 2002. Kun tug‘ard in kun botarg‘a so‘zi yetgan zot. *O‘zbek adabi-yoti va san‘ati*: 2-fevral.
- O‘zbek adabiyoti tarixi*. 1977. 1-tom. Toshkent: Fan.
- Shayx Usmonxon Temurxon o‘g‘li Samarqandiy. 2021. *Qur‘oni Karim va o‘zbek tilidagi ma‘nolari tarjimasi*. Ankara.
- Shukurov, Z. 2021. “Qisasi Rabg‘uziy”ning nodir qo‘lyozmasi va toshbosma nusxalari qiyosi va tahlili”. *“Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari*: 42 – 45.